



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 342 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalariidan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhmet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
Fayziyeva Umida Asadovna	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumlalarining nahviy tahlili	328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
Raximov Azizbek Normurodovich	



JADID TARAQQIYPARVARI AHMAD ZAKI VALIDIYNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA UNING VATANPARVARLIK HARAKATLARI

Raximov Azizbek Normurodovich

Buxoro pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Turkiston va Boshqirdiston milliy ozodlik harakatidagi o'rni hamda vatanparvarlik g'oyalarining shakllanish omillari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, uning milliy davlatchilik, istiqloq, ma'rifatparvarlik va milliy birlikni ta'minlashga qaratilgan qarashlari yoritilgan. Tadqiqotda Ahmad Zaki Validiyning siyosiy kurashi, ilmiy merosi hamda turkiy xalqlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida baholangan. Tadqiqot natijalari jadidchilik harakati tarixini chuqurroq o'rganish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Zaki Validiy, jadidchilik, taraqqiyparvarlik, milliy uyg'onish, milliy ozodlik harakati, vatanparvarlik, Turkiston, Boshqirdiston, ma'rifatparvarlik, milliy davlatchilik, siyosiy faoliyat, tarixiy meros.

Abstract: This article analyzes the socio-political activities of the Jadid reformer Ahmad Zaki Validi, his role in the national liberation movements of Turkestan and Bashkortostan, and the formation of his patriotic ideas based on historical and scholarly sources. Particular attention is paid to his views on national statehood, independence, enlightenment, and national unity. Using a historical-comparative approach, the study evaluates Ahmad Zaki Validi's political struggle, scholarly legacy, and contribution to the development of the Turkic peoples. The findings contribute to a deeper understanding of the Jadid movement and provide a valuable basis for promoting patriotic education among younger generations.

Key words: Ahmad Zaki Validi, Jadid movement, reformism, national awakening, national liberation movement, patriotism, Turkestan, Bashkortostan, enlightenment, national statehood, political activity, historical heritage.

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируются общественно-политическая деятельность видного джадидского просветителя Ахмада Заки Валиди, его роль в национально-освободительном движении Туркестана и Башкортостана, а также становление его патриотических взглядов. Особое внимание уделено его идеям национальной государственности, независимости, просвещения и национального единства. С использованием историко-сравнительного подхода дана оценка политической деятельности, научного наследия и вклада Ахмада Заки Валиди в развитие тюркских народов. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для дальнейшего изучения истории джадидизма и воспитания молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова: Ахмад Заки Валиди, джадидизм, просветительство, национальное возрождение, национально-освободительное движение, патриотизм, Туркестан, Башкортостан, национальная государственность, политическая деятельность, историческое наследие.

KIRISH

Vatan ozodligi, millat farovonligi yo'lida o'z jonidan kechgan ko'plab buyuk shaxslarni bilamiz. Ularning hurriyat yo'lida qilgan ishlarini Prezidentimiz yuksak baholagan edilar. Shuningdek, Prezidentimizning quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir: "... bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat - bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz. Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlarini tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko'plab topilishi - ma'naviy jasorat tuyg'usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi."

Biz ko'plab milliy qahramonlarni bilamiz va ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Hayot-mamot masalasi turgan eng og'ir, mas'uliyatli damlarda shaxsiy jasorati, aql-zakovati tufayli xalqiga bosh bo'lib, uni omon saqlab



qolib, porloq istiqbol sari boshlagan yoki uning ozodligi, or-nomusi, shon-sharafi uchun so'nggi nafasgacha mardona kurashib, shahid ketgan aziz insonlar xotirasini doimo minnatdorchilik bilan esga olamiz. Butun aql-idroki, iste'dodi kuchini qalami uchiga jamlab, el-ulusini zolimu bosqinchilardan himoya qilgan, unga hurlik yo'lini ko'rsatgan, o'zi yaratgan badiiy va ilmiy javohirlaridan nasllarini bahramand qilgan ulug' zotlar hamon qalblarimizni nurafshon etib keladi. Chapdastlikda, zehni o'tkirlikda, sergaklik-xushyorlikda misli yo'q, oliyjanob maqsad yo'lida har qanday murakkab vaziyatda osongina g'olib chiqib ketadigan tutqich bermas qahramonlarni sarguzasht asarlardan ko'plab o'qiganmiz va ko'rganmiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda chor Rossiyasi va sovetlar mustamlakachiligi davri tarixi juda keng tadqiq etilgan mavzulardandir. Ushbu tadqiqot ishida biz mana shu davrning ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqealarini o'zida mujassam etgan Ahmad Zaki Validiyning esdaliklari, uning tarixiy ahamiyatiga to'xtaldik. Shu kunga qadar Validiyning ilmiy merosi bir muncha o'rganildi. Uning bevosita yurtimiz tarixiga oid hisoblangan "Xotiralar" sovetlar davrida ham, mustaqillik yillarida ham tadqiq etildi, turli tillarga tarjima qilindi.

Validiyning ilmiy merosini o'rganish, xususan, uning esdaliklarini tadqiq qilish borasidagi Salixov A. G., Xusainov G. B., Isxakov S. M., Rajabov Q. K., Turdiyev Sh., Xolmurodov Sh., Yuldashbayev A. M., Voinov V. M. va boshqalarning asarlarini keltirishimiz mumkin. Lekin, afsuski, bu mualliflarning aksariyati Rossiya va boshqa mamlakat tarixchilari hisoblanadi. Yurtimizda esa Validiy faoliyatini keng miqyosda tadqiq qilayotgan olimlar barmoq bilan sanarli darajada ekanligini hisobga olsak, bu mavzu doirasida hali ko'plab tadqiqotlar olib borish kerakligini taxmin qilishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-pedagogik va tarixiy-qiyosiy yondashuvlar tashkil etdi. Tarixiy-pedagogik yondashuv orqali Ahmad Zaki Validi faoliyatining XX asr boshlaridagi Turkiston va Boshqirdiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi ochib berildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida uning qarashlari boshqa jadid taraqqiyparvarlari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Ismoil G'aspirali g'oyalari bilan taqqoslanib, umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari asosida Ahmad Zaki Validi asarlarida ilgari surilgan milliy davlatchilik, istiqloq, ma'rifat, milliy birlik va vatanparvarlik g'oyalari ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Mantiqiy tahlil va konseptual yondashuv vositasida uning siyosiy faoliyati hamda ilmiy qarashlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ahmad Zaki Validiy To'g'on o'zining buyuk millatimiz ozodligiga bag'ishlangan beqiyos mashaqqatlarga to'la boy va maroqli hayot yo'li, ilmiy, ijodiy, amaliy faoliyati bilan bunday ibratli timsollarni har tomonlama to'ldiradi, ularga tugallik baxsh etadi. Chunki shu bir inson tabiati va sa'y-harakatlarida har kim orzu qilsa arzigulik o'sha fazilat va sifatning barchasi eng go'zal tarzda mujassam va namoyon bo'lgan. Mavzuning dolzarbligi ham shundan iboratki, XX asr boshlari yurtimiz tarixini o'zida mujassam etgan Ahmad Zaki Validiyning "Xotiralar" bugungi kun manbashunosligida muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Validiy esdaliklarini o'rganish, undagi ma'lumotlarni yosh avlodga yetkazish, tariximizning bizga ma'lum bo'lmagan sahifalarini ochib berishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asl ismi Ahmat-Zaki Ahmetshaxovich Validov bo'lgan Ahmad Zaki Validiy To'g'on turkiy xalqlar milliy ozodlik harakatining yetakchilaridan biri, sharqshunos, turkshunos olim, falsafa doktori, tarix bilimdoni, sobiq sovetlar davrida sharq qo'lyozmalari tadqiqotchilari ichida ko'zga ko'ringani va Turkiston milliy ozodlik kurashining ma'naviy yo'lbo'shchisi va faol ishtirokchisi edi. U 1890-yili 10-dekabrda Boshqirdistonning Ufa guberniyasi Eshimboy (Starlitomoq) tumanidagi Kuzyanovo qishlog'ida mulla oilasida tug'ilgan.

Ota-onasidan tortib barcha qarindosh-urug'lari, hamqishloqlarining aksariyati yetuk bilimli odamlar – imomlar, mudarrislar, umuman ilm-ma'rifatni yuksak qadrllovchi kishilar bo'lgan muhitda tug'ilib voyaga yetgan.

Otasi Kuzyanovo qishlog'idagi madrasada dars berar va imomlik qilar edi. Ahmad Zakiy Islom asoslarini, arab, fors tillarini shu madrasada o'rgandi. 1901–1908-yillari ona tomonidan bobosi Habibnazarning qishlog'i Utyakovdagi madrasada ta'lim oldi. Bu madrasa diniy fanlar bilan bir qatorda tarix, falsafa, jug'rofiya va matematikaga ixtisoslashtirilgan edi.

Ayni shu davrda, ya'ni 18-20 yoshlarida butun G'arb va Sharq ilmiy, badiiy tafakkurining eng noyob namunalarini turli tillarda o'qidi, ularni qiyosiy jihatdan puxta tahlil qilib, muhim xulosalar chiqarib, to'liq o'zlashtirgan bir komil inson bo'lib yetishadi. O'sha paytdayoq u Rossiya imperiyasi hududida nashr etiladigan deyarli barcha gazeta va jurnallarni muntazam olib o'qib borardi. G'arb va Sharq mamlakatlarining mashhur olimlari, yirik



kutubxonalari bilan mustahkam aloqa bog'lab, ulardan o'zini qiziqtirgan asarlar ro'yxatini, qo'lyozmalarini, tarjimalarini olib turardi. Uning qiziqishlari esa cheksiz va tubsiz ummon edi: bir tomoni barcha muqaddas va diniy kitoblar, Yusuf Xos Hojib, Naqshband, Rumi, Yassaviy, Attor, Beruniy, Mirxond, Navoiy, Xondamir, So'fi Olloyor, al-Ma'ariy, Mahtumquli va Sharqning boshqa mutafakkirlari bo'lsa, ikkinchi tomoni Avgust Myuller, Dauzi, Viktor fon Rozen, Bartold, Leon Kaen, Fader, Dreyer, Grim-Grijmaylo, Gotvald, Ovsyanikov-Kulikovsky, Radlov, Mixaylov, Verbitskiy, Bogoroditskiy, Katanov, Xvostov, Xarlamovich, Plexanov, Strive, Kireyev va boshqa ko'plab G'arb hamda rus olimlarining asarlari va saboqlari. Shu son-sanoqsiz asarlarni o'tkir zehn, qunt va sabot bilan o'qib, o'rganib, o'zi va millati uchun muhim xulosalar chiqarib, ular xususida manaman degan olimlar bilan suhbatlar, munozaralar yuritishga qodir bo'lgan yoshgina yigitcha Ahmadzakiy o'sha davrda shakllantirgan e'tiqodiga, tanlagan hayot va kurash yo'liga umrining oxirigacha sodiq qoldi.

1908-yili Orenburgdagi "Husayniya" madrasasida ham o'qidi. Bu orada Qozon universitetiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rdi. 1908-1912-yillari Qozonning "Qosimiya" madrasasida ta'lim oldi. Tahsil asnosida uch yil madrasada tarix va arab tilidan dars berdi. Bu yerda birinchi bor sharqshunoslik bilan shug'ullana boshladi. 1912-yili o'zining birinchi kitobi "Turk va tatar tarixi"ni yozib tugatdi. Bu asar unga katta shuhrat keltirdi. Qozon va Peterburg universitetlari moliyaviy ko'magi bilan Sharq qo'lyozmalarini o'rganish uchun uni O'rta Osiyoga yuborishga qaror qilindi. 1913-yil kuzida Qozon universiteti Tarix, arxeologiya va etnografiya jamiyati Sharq qo'lyozmalarini o'rganish uchun Farg'ona vodiysiga ilmiy safarga yubordi. Validiy safar chog'ida 72 ta qo'lyozma topdi va ularni ilmiy jihatdan tadqiq qildi.

1914-yili Rossiya Fanlar akademiyasi Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo'llanmasi bilan Buxoro amirligiga keldi. Validiy bu yerda "Qur'oni karim"ning o'ninchi asrda turkiy tilga o'g'irilgan eng qadimgi noyob nusxasini topishga muvaffaq bo'ldi. Bu haqda u o'zining "Xotiralar"ida quyidagicha yozadi: "...uning sandig'ida saqlangan rasmlar yozma kitoblarni, muzeyda saqlanishi kerak bo'lgan Qur'onni va "Evradda yozmalarini ... olib ko'rsatdi... Qori Komil ajoyib qo'lyozma Qur'on Umar Hojining ota-bobalariniki bo'lmay, biron tomonidan shu oilada saqlash uchun omonat qilib qoldirilganligini hikoya qilib berdi".

1919-yilning boshida Validiy Boshqird armiyasining sovetlar tomoniga o'tishida asosiy tashkilotchilik vazifasini o'tadi va Sovet davlati bilan muzokaralar olib bordi. Bu muzokaralar natijasi o'laroq, xuddi shu yili mart oyida Boshqird Avtonom Sovet Respublikasi tashkil etildi.

1919-yilning fevralidan 1920-yilning iyuniga qadar Boshqirdiston revkomining raisi sifatida faoliyat olib bordi.

1920-yilning 19-mayida chiqqan RSFSR VKP(b) MKning "Boshqird Avtonom Sovet Respublikasining davlat boshqaruvi to'g'risida"gi qaroridan so'ng Boshqirdistondagi antisovet harakatiga qo'shildi. Bolsheviklarning bosimi tufayli mamlakatdan chiqib ketadi. So'ng Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Turkistonga boradi.

Turkistonga kelgandan so'ng bu yerdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. 1921-yili milliy ziyolilar va millat yetakchilari bilan birga Turkiston Milliy Kengashi va uning bayrog'ini tashkil etilishi va yaratilishida qatnashadi. Bu yerdagi milliy ozodlik kurashida qatnashib, muvaffaqiyatga erisha olmagan, 1923-yilda o'lkadan chiqib ketadi. Ayni shu 1923-yildan Validiy Sharq va Yevropa shaharlariga ilmiy safarlarini boshladi. Osiyoning Eron, Afg'oniston, Hindiston kabi mamlakatlarda, Yevropaning Parij, Berlin, Praga, Budapesht kabi shaharlarida ilmiy izlanish olib bordi. Qayerda bo'lmasin, o'sha yerdagi xalq tilini, tarixini o'rganishga harakat qildi. Mashhur kutubxonalar va arxivlarda ilmiy ish bilan shug'ullandi. Noyob qo'lyozmalarni o'rganib, ularni xalqqa taqdim etish bilan shug'ullandi. Xuddi shu safar mobaynida Eronning Mashhad shahridagi kutubxonalardan birida ishlab, Ibn Fadlanning qimmatli qo'lyozmalarini topadi. Keyinchalik ayni shu qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rganib, doktorlik ishini yozadi.

Validiy hayotining eng qizg'in va siyosiy kurashlarga boy davrini Turkiston o'lkasida o'tkazdi. Bu yerda yurgan vaqtida olim faqatgina ilmiy izlanishlar olib borish bilangina cheklanib qolmay, mahalliy ziyolilar bilan ham mustahkam aloqa o'rnatdi, ular bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi va o'lkadagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etdi.

Uning butun O'rta Osiyoda nom qozonishi va o'lka siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlashi bolshevik rahbarlarining diqqatini tortdi. Lenin, Stalin va boshqa bolsheviklar rahbarlari bilan Turkiston taqdiri bog'liq masalalarni hal qilishda endi Ahmad Zakiy bilan maslahatlashib ish ko'rgan vaqtlar ham bo'ldi. Lekin Validiy Turkiston millatlarining mustaqilligi, o'z taqdirini o'zi belgilash to'g'risidagi va'dalar firibgarlikdan boshqa narsa emasligini Boshqirdiston misolida ko'rdi. Shu sababli o'lkadagi faoliyatida u doimo milliy birlikni ta'minlash, yurtimiz ziyolilarini birdamlikka chaqirishdan charchamadi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli kurashda ham faol ishtirok etdi. U Turkistonning eng ko'zga ko'ringan milliy kurashchilari bo'lgan Junaydixon, Ibrohimbek, Mulla Abduqahhor, Shermuhammadbek, Bahrombek, Ochilbek, Davlatbek, Holbo'tabek va boshqalar bilan birga sovetlarga qarshi kurash olib borishga, buning iloji bo'lmaganda ular bilan doimiy aloqada bo'lib, kurashni davom ettirishga harakat qildi. Lekin Turkistonda bu kurash mag'lubiyatga uchray boshlagach hamda o'lkada yashash xavfli bo'lib qolgach, Afg'oniston, Eron, Hindiston va hatto Yevropa davlatlariga chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Turkistondan chiqib ketgandan so'ng olim bir qancha muddat muhojirlikda yurishga majbur bo'ladi va nihoyat Turkiyada qo'nim topib, to umrining oxiriga qadar shu yerda qoladi.

1924-yili olim Berlinga ko'chib o'tadi va u yerda G'iyos Is'hoqiy bilan hamkorlik qiladi.

1925-yildan boshlab Turkiya fuqarosi, Anqaradagi Ta'lim vazirligining maslahatchisi, so'ngra Istanbul universiteti professori. Shu yili universitetda dars berish bilan birga, Turkiston milliy birligi "Jamiyat" gazetasini nashr etdi. Ushbu nashr yordamida Validiy barcha musulmonlarni Turkiya atrofida birlashtirish g'oyasini e'lon qildi.

1927-yilda eski qadrdon do'sti Mustafo Cho'qay bilan birgalikda Turkiston milliy birligi tashkilotining siyosiy organi bo'lgan "Yeni Turkistan" (1927–1931) oynomasini chiqardi.

1935-yilda Vena universitetini tamomladi va "Ibn Fadlanning shimoliy bulg'or, turk va xazar yurti bo'ylab sayohati" mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi.

1935-yil iyunida Bonn universitetiga dars berish uchun taklif etiladi. Qishki semestr (1938-1939) davomida Quyi Saksoniyadagi (Germaniya) eng qadimiy universitetlardan biri bo'lgan Gettingen universitetida ishladi.

1939-yilning 1-sentyabrida A. Validiy Germaniyani tark etdi va Turkiyaga qaytdi. Shu yilning 1-noyabridan yana Istanbul universitetidagi faoliyatini davom ettirdi.

1953-yili Islomiy tadqiqotlar institutini tashkil etdi va uning direktorligiga tayinlandi.

1967-yil 27-iyunda Zakii Validiyga Angliyaning Manchester universiteti faxriy doktori unvoni berildi.

Zakii Validiy 1970-yilning 26-iyulida Turkiyada vafot etdi va Istanbuldagi Karacaahmet Mezarligi nomli qabristonga dafn etildi.

Ahmad Zakii Validiy hayoti davomida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar tuzilishida tashabbus ko'rsatdi va ularning faoliyatida bevosita qatnashdi. Jumladan, Turkiya Sharqshunoslik assotsiatsiyasini tuzishda qatnashdi, Sharq mamlakatlarini o'rganish bo'yicha nemis jamiyatining, Avstraliya ilmiy jamiyatining, Finlandiya ilmiy jamiyatining, Avstriya Hammer-Purgsthal jamiyatining a'zoligiga saylandi. Eron Ta'lim vazirligining 1-darajali oltin medali sovrindori bo'ldi.

Zakii Validiy turkiy xalqlar tarixiga oid juda ko'plab asarlar muallifidir. U jahonning o'n bir tilida (xususan, arab, turk, nemis, venger, fransuz, ingliz va boshqalarda) to'rt yuzdan ortiq asar e'lon qilgan. Shu ro'yxatni ko'zdan kechirsak ham, bu zot oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni sezamiz: "Turk xalqlari tarixiga kirish", "O'rta Osiyo tarixining islom davri", "Muqaddimat ul-abab"ning Xorazm nusxasi", "Lutfiy va uning devoni", "Turkman shoiri Maxtumquli ijodi", "Xudoyorxonning so'nggi kunlari", "Farg'onadan topilgan Sharq qo'lyozmalari", "XVIII asr Farg'ona tarixiga doir", "Buxoro xonligiga sayohat", "Turkistonning madaniy-ma'naviy boyliklari", "Beruniyning dunyoqarashi", "Turkiston", "Shaybonixon she'riyati", "Turklar madaniyatining inqirozi", "Xorazm haqida turkiy manbalar", "Turkiston ilmiy nashrlarining qisqa bayoni", "Turkiy xalqlar alifbosi muammolari", "Mahmud Qoshg'ariy haqida", "Jaloliddin Rumiy", "Al-Beruniy shimol xalqlari xususida", "Qadim Xorazmda til va madaniyat", "Sharq Gyote nazarida", "Turkiylar shajarasi", "Alisher Navoiy, hayoti va ijodi", "Navoiy haqida professor Rizo Nur bilan bahs", "Amir Temur maqbarasi", "Beruniy", "Temur va Boyazid Yildirim", "Xondamir", "Buyuk hukmdor Shohrux", "Temur avlodlari", "Sharqda sho'ro siyosati", "Temurning G'arbga yurishlari", "Bolasog'un", "Chingizxon" va h.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kullas, Ahmad Zakiyning yurtimiz tarixini o'rganishga qo'shgan hissasi juda ulkandir. Ma'lumki, olim Qozon universiteti Tarix, arxeologiya va etnologiya jamiyatining yo'llanmasi bilan Sharq qo'lyozmalarini o'rganish uchun 1913-1914-yillari Farg'onaga, so'ng Rossiya Fanlar akademiyasi Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo'llanmasi bilan Buxoro amirligiga safar qildi. Ushbu safari chog'ida tarix va yangi zamon haqida qimmatli ma'lumotlarni to'pladi. 1923-1932-yillar olim hayotida katta iz qoldirdi. Shu yillarda Turkiston va Volgabo'yi turkiy xalqlari tarixi, turmush tarzi va madaniyati ustida ilmiy izlanishlar olib bordi. U ko'plab manba va izlanishlariga tayanib, asosiy ishi hisoblangan "Zamonaviy Turkiston va uning yaqin tarixi" kitobini yozdi. Kitob boshda uchta katta bo'limdan tarkib topgan, keyinchalik ikki bob ilova qilingan. Birinchi bo'lim turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan. Ular yashagan hudud Kaspiy dengizidan Oltoy, Olatog', Tyanshan tog'lari-gacha cho'zilgan. Ikkinchi bo'lim "Sharqiy Turkiston" (hozirgi Xitoyning sharqiy qismi) deb atalgan. Uchinchi bob "Shimoliy Turkiston" (Orol tog'lari qismi) deb atalgan. Qolgan ikki bobi qachon yozilgani aniq emas.

Zakii Validiy To'g'on Markaziy Osiyo tarixining XVI asrdan to XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrini tadqiq qilgan. Unga qadar ham bu o'lka tarixi yoritilgan ilmiy tadqiqot ishlari, asarlar, qo'lyozma kitoblar bor edi. Ularning barchasi bilan tanishib chiqqan Zakii Validiy o'lka tarixi to'la o'rganilmaganiga amin bo'ladi va uni batafsil tadqiq etishga kirishadi. O'zidan oldin bu hudud tarixini o'rgangan olimlarning xato fikrlarini rad etadi. V. Grigoryev, F. Shvars, Denison Ross, Masalsk, Maxashik va hatto V. Bartoldning ayrim fikrlarini yoqlamaydi. Kitobning birinchi qismida o'lkaning hududiy chegaralari tadqiq qilingan bo'lsa, ikkinchi qismida turk xalqlarining kelib chiqishi va qaysi millatlar bu guruhga kirishi bayon qilinadi. Asarning uchinchi qismi



o'lkani XVI asrgacha bo'lgan tarixiga bag'ishlanadi. Bu mintaqada yashagan tub xalq kimlar bo'lgani, ularni kimlar bosib olgani, o'lkani boshqa xalqlar madaniyati bilan aloqalari qanday bo'lgani, ko'k turklar va Islom dini haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. To'rtinchi va beshinchi boblar o'lkani chorizm bosib olishi va siyosiy vaziyatlar tafsilotiga bag'ishlangan. Kitob 615 sahifadan iborat, so'nggi betida qachon yozilgani bitilgan: "Vena, Xernalser-Gyurtel, 11. Tur. 1929-yil 10-oktyabr". Bu katta ilmiy-tarixiy izlanish tarixchilarga Markaziy Osiyo haqida keng ma'lumot beradi.

Ahmad Zakiy Validiy To'g'on chet mamlakatlarda ham ilm bilan shug'ullandi. Turk, nemis, fransuz, ingliz, arab, venger, rus va boshqird tillarida to'rt yuzdan ortiq ilmiy ish e'lon qildi. "Bugungi turk eli va yaqin tarixi" (Istanbul, 1942–1947) va "Xotiralar" (Istanbul, 1969) kabi mashhur asarlari shular jumlasidandir. Markaziy Osiyo tarixining teran tadqiqotchisi To'g'onning xotiralarini "Bo'linganni bo'ri yer" nomi bilan o'zbek tilida ham nashr qilgan. Uning tadqiqotlari bugungi kunda qimmatli ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмад Заки Валидий. Хотиралар//Шарқ юлдузи. 1993. № 5-6.
2. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлингanni бўри ер: Туркистон халқларининг миллий мустиқиллик учун кураши тарихидан: ХОТИРАЛАР// Бошқирд тилидан Ш. Турдиев тарж. Китобнинг айрим қисмларини Ш. Холмурод таржима қилган. Т., 1997.
3. Гилязов И. На другой стороне. Казань. 1998.
4. Ражабов Қ. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т., 2015
5. Салихов А. Г. Научная и общественно-политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1908-1920 гг. М., 1991.
6. Чокаев М. Национальное движение в Средней Азии. В кн.: Гражданская война в России: события, мнения, оценки. М. 2002.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. II. Тошкент, 2001.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустиқлақчилиги даврида. Иккинчи китоб. Тошкент: Шарқ, 2000.
9. Исхаков С. М. Ахмед-Заки Валидов: новейшая литература и факты его политической биографии// Вопросы истории. № 10. 2003.
10. Ражабов Қ. Жадидлар - истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари // Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустиқиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. 1991. № 1.
11. <http://www.auditorium.ru>
12. www.ziyounet.net.
13. <http://www.disserscat.com>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.